



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

O'RTA TIBBIYOT XODIMLARDA MULOQOT MADANIYATNI SHAKLLANTRISH

DJumabayev Ergash Ataxanovich

Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi
texnikumi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari

Fayzullayeva Mohinur Rasuljon qizi

Ellikqal'a Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi
texnikumi yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta tibbiyot xodimi faoliyatida tibbiy etika va tibbiy deontalogiya, muloqot madaniyatini shakllantirish dolzarbligi, ularning kasbiy va intellektual yuksalishida bu madaniyatning o'rni alohida o'ziga xos tarzda ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek tibbiy xodim va bemor bilan muloqot jarayonida qanday psixologik yondashish kerakligi ham izohlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiyot xodimi, bemor, madaniyat, muloqat, noverbal va verbal muloqat, etika, deontalogiya, psixologiya, empatiya va tinglash, professional til va xulq –atvor, stressni boshqarish, jamoa bilan muloqat, doimiy ta'lif va treninglar.

KIRISH

O'rta tibbiyot xodimlarida muloqot madaniyatini shakllantirish juda muhim ahamiyatga ega, chunki ular bemorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lishadi va ularning ruhiy holati, xavotirlari hamda ehtiyojlarini tushunish va qo'llab-quvvatlash kerak. Tibbiy faoliyatda tibbiyot xodimlari va bemorlar o'rtasida nafaqat bemorning muloqat madaniyati, balki jismoniy holatini yaxshilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган alohida munosabatlar shakllanadi. Shuning uchun tibbiyot xodimi va bemor o'rtasidagi muloqot madaniyatni va psixologiyasini o'rganish hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bemor muammolarni hal qilish uchun asosiy muloqot qobiliyatları va ko'nikmalariga ega bo'lish muhimdir. Ular, birinchi navbatda, bemor bilan suhbatlashish, uning ichki dunyosiga kirib borish, bemorning



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

individual psixologik xususiyatlarini yetarli darajada tushunish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Muloqot — ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo‘yicha ma'lumot almashinishidan iborat bo‘lgan o‘zaro tasir etishidir. Muloqotni ikki turi mavjud: verbal va noverbal

Verbal muloqot – faqat insonga xos bo‘lib, zarur shart sifatida tilni o‘zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o‘zida ham axborot manbai sifatida ham suhbatdosh bilan o‘zaro ta’sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Noverbal muloqot – axborot va tuyg‘ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashishning ko‘p shakllarini qamrab oladi. Noverbal muloqotga ba’zan “Badan tili” sifatida qarashadi, biroq bunday qarash xato bo‘lib, biz noverbal signallardan aytganlarni ta’kidlash, kuchaytirish yoki kengaytirish maqsadida foydalanamiz.

Madaniyat — jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalananadi.

Etika- (“axloq falsafasi”, “odat”) shaxs yoki jamiyat odatlarini, axloq normalarini o‘rganuvchi hamda belgilovchi falsafiy tadqiqotdir. U “to‘g‘ri” – “noto‘g‘ri”, “yaxshi”-“yomon” tushunchalarini tahlil qiladi.

Tibbiyot deontologiyasi – tibbiy xodim sir saqlashi, bemorning hayoti va sog‘lig‘i uchun tibbiyot xodimining javobgarligi, tibbiyot xodimlarining o‘zaro munosabati masalalari va boshqa kiradi.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti – harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologianing tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriylar kiradi.

Empatiya va tinglash: Ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘rta tibbiyot xodimlari bemorlarning dardlarini tushunib, ularni qulay muhitda tinglashi lozim. Bu, o‘z navbatida, bemorning ishonchini qozonishga yordam beradi.

Professional til va xulq-atvor: Xodimlar bemorlar bilan muloqotda odob-axloq qoidalariga rioya etishlari hamda ortiqcha texnik yoki tibbiy jargonlardan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

foydalanmasliklari kerak. Bu bemorlar bilan aniq va tushunarli muloqot qilishni ta'minlaydi.

Stressni boshqarish: O'rta tibbiyot xodimlari ish jarayonida ko'plab murakkab holatlar va stressga duch kelishlari mumkin. Biroq, ular professional muloqot madaniyatini saqlab qolishlari va bunday holatlarda sovuqqonlikni yo'qotmasliklari kerak.

Jamoa bilan muloqot: Tibbiyot xodimlari o'rtasida ham yaxshi muloqot madaniyati bo'lishi kerak, chunki samarali jamoaviy ish bemorning tez va samarali davolanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Doimiy ta'lim va treninglar: O'rta tibbiyot xodimlariga muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga doir treninglar o'tkazish, ular o'z ishlarini yanada samarali bajarishlari uchun kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, muloqot - o'rta tibbiyot xodimlar madaniyatni oshirish vositasi hisoblanadi, o'rta tibbiyot xodimlari bemorga salomlashish, xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi ko'nikmallar bemorlar tonomidan qadrlanadi, natijada bemorlar ularning maslahati va ko'rsatilayotgan davolanishdan qoniqish hosil qilishadi. Ayrim hollarda psixoteraevlik tasir barcha davo turlardan ustun turadi. Shuning uchun muloqot tibbiyot xodimlarning ishida muhim rol o'ynaydi. Muomila bilimi hamshira uchun bemor bilan uning oilasi, shifokorlar va boshqa mutaxassislar bilan davolash ishlarni samarali olib borish uchun kerakdir. Tibbiy xodimi xushtabiatligi, bilimili va madaniyatli muomilasi bilan bemor hamda uning oilasi ishonchni va hurmatni qozonishga sazovor bo'ladi.

Foydalilanigan Adabiyotlar:

1. Akilova, L. I. (2018). Tibbiyotda muloqot va etika. Toshkent: O'zbekiston tibbiyot akademiyasi.
2. Ismoilov, Sh. (2020). Tibbiyot xodimlarining kommunikativ ko'nikmalari. Tibbiyot jurnal, 56(4), 23-30



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

-
3. Khalilova, G. A. (2017). Sog'liqni saqlashda psixologik muloqot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi.
 4. Maksudov, R. (2019). Tibbiyat xodimlarining ish faoliyatida etika va muloqot (Tibbiyat ilmiy tadqiqotlari). Toshkent: O'zbekiston tibbiyat ilmiy markazi.